
FARG'ONADA KASALLIKDAN SHIFO TOPGANLAR SONI 84 NAFARGA YETDI

Bugun Farg'onada koronavirusga chalingan navbatdagi 8 nafar bemor to'liq sog'aydi. Ular viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi mas'ullari ishtirokida Farg'ona tumani Chimyon qishlog'ida joylashgan "Nurafshon" sanatoriyasiga reabilitatsiyaga kuzatildi.

Sog'aygan bemorlarning 7 nafari Turkiyadan, 1 nafari Rossiyadan kelgan va karantinga olingan fuqarolardir. Ularning 4 nafari Farg'ona viloyati va Toshkent shahridan, qolganlari esa Samarqand, Buxoro, Andijon va Namangan viloyatlaridandir.

- Farg'ona viloyati yuqumli kasalliklar shifoxonasida bemorlarga barcha sharoitlar yaratilgan. Biz davolanish jarayonida biror-bir qiyinchilikka uchramadik, - deydi Buxoro viloyatidan bo'lgan 61 yoshli onaxon. - Shunday mehribon Yurtboshimiz, g'amxo'r davlatimiz borligidan behad mamnunmiz.

Eslatib o'tamiz, Farg'ona viloyatida jami 84 nafar bemorlar koronavirus kasalligidan butkul sog'aydi.

Farg'ona viloyati hokimligi Axborot xizmati

2020-05-04 18:49:42